

INNOVATSION FAOLIYATDA KASBIY TA'LIM VA UNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK MOHIYATI

Sadikova Roza Ismailovna

katta o'qituvchi

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Roza.sodykova@mail.ru

Umirzoqova Malikaxon Botir qizi

– Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti,
25b-23-guruh talabasi

Аннотация. Независимо от сферы деятельности любой специалист должен понимать значение своей профессии, свой социальный статус и свое место в развитии общества.

Ключевые слова: образование, инновации, деятельность, психология, производство, интернет-ресурсы, педагогические технологии

Abstract. Regardless of the field of work, any specialist should understand the meaning of his profession, his social status and his place in the development of society.

Keywords: education, innovation, activity, psychology, production, internet resources, pedagogical technology

Kirish.

Ma'lumki uzluksiz ta'lim va uzluksiz tarbiya o'zining mohiyati va e'tiboriga ko'ra asrlar osha davom etib, charxlanib kelmoqda. Buni biz muqaddas hadislarimizda («Beshikdan qabrgacha ilm o'rgan»), «Ilm o'rganish har bir musulmon uchun farzdir») rus xalq maqollarida («Vek jivi - vek uchis») yoki ongli va asosli ravishda kasb-hunar egallash hamda tarbiyali inson bo'lish bobida «Tarbiya taqani to'g'irlaydi» kabi xalq maqollari misolida ko'rishimiz mumkin.

Innovatsion faoliyat asosida olib borilayotgan tadqiqot ishlarimiz bugungi pedagogik ta'lim nazaryasi hamon maktab amaliyoti va glaballashuv davri talabi hamda ehtiyojidan ortda qolib kelayotganligini ko'rsatmoqda. Pedagogika fan sifatida vujudga kelganidan buyon o'qituvchi shaxsining kasb tarbiyasi to'g'risida mukammal bilim bera olgan emas, pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchining maqsadi aksariyat holda bir-birini to'ldiraolmay kelmoqda. Qolaversa, bugungi kun talabidagi «Ideal o'qituvchi» va «Ideal tarbiyachi» modeli yaratilmagan. Dars jarayonida hamon o'qituvchi hukmron. o'quvchi-talaba pedagogik jarayonning mustaqil fikrlovchi subyekti darajasiga to'la qonli ko'tarila olgan emas. Bola ko'proq pedagogika metodikasidan ko'ra, vaqt va muhit metodikasi asosida tarbiyalanmoqda. Shunga ko'ra bola tarbiyasini o'qituvchining kasb tarbiyasidan boshlamoq zarur. Chunki kasb tarbiyasini egallagan mutaxassisgina tarbiya metodikasini biladi. Ta'lim esa tarbiyaning bir vositasi hisoblanadi.

Material va metodlar.

Kasb tarbiyasi deganda kasb-xunarni ulug‘lash, uni qadriga yetish, o‘z kasbiga sodiq qolib, kasb burchi va mas‘uliyati asosida faoliyat yuritish hamda kasb mahoratini uzluksiz takomillashtrib borish jarayoniga aytiladi.

«Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonunning uchinchi moddasida ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining yetakchi prinsiplaridan biri ta‘lim tizimining uzluksizligi va izchilligi deb qaraladi. Darhaqiqat, har qanday ijtimoiy institut o‘zining uzluksiz pedagogik ta‘limiga ega bo‘lmas ekan, zamon talabiga javob bera oladigan ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlarni tabiyalab bo‘lmaydi.

Har sohaning o‘ziga xos kasb tarbiyasi mavjud. Tadqiqiy kuzatuvlarimiz aksariyat holda bu masalaning tub mohiyatiga bir tomonlama yondashib kelinayotganligini ko‘rsatmoqda. Har bir kasbni yaxlit tizim holda olib qaraydigan bo‘lsak, akademik Ye.Klimov barcha kasblarni besh turga ajratib o‘rganishni tavsiya etadi. Bular;

«Inson-inson»
«Inson-texnika»
«Inson-tabiat»
«Inson-xizmat ko‘rsatish tarmog‘i»
«Inson-belgilar tizimi»

Jumladan o‘qituvchilik, tarbiyachilik, shifokorlik kasblari faqat odamlar bilan ishlashga qaratilgani uchun «Inson-inson» kasblari tizimiga kiradi.

Asosiy qism.

Muammo yechimi uzluksiz ta‘limning tarkibiy qismi hisoblangan uzluksiz pedagogik ta‘lim mohiyatidan kelib chiqib, o‘quvchi yoshlarni o‘qituvchilik kasbiga ongli va asosli ravishda yo‘naltrishga qaratiladi. Bu jarayon dastavval o‘qituvchilik kasbining ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni haqida tushuncha berishdan boshlanib, kasbning sharafligi, mas‘uliyatli va boshqa o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ma‘lumot beriladi. Ana shu jarayonda kasbga nisbatan o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otiladi. O‘quvchining qiziqishlari doirasida o‘qituvchilik kasbiga xos dastlabki kasbiy ko‘nikmalar shakllantriladi. Kasbga bo‘lgan yetakchi motivlar paydo bo‘la boshlaydi.

Demak, kasb tarbiyasi kelgusida kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalashga “o‘z o‘rnini bo‘shatib beradi”, ya‘ni kasb tarbiyasi asosida kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash kasb tarbiyasi tuzilmasidagi barcha sifatlar hamda fazilatlarini o‘zida namoyon etgan holda takomillashib boradi. Kasb tarbiyasining eng yuqori oliy nuqtasi kasbiy mukammallik (yetuklik) hamda kasbiy komillikda o‘z ifodasini topadi.

Bugungi global taraqqiyot davrida kasb tarbiyasiga xos ijtimoiy-salbiy xususiyat va illatlarning oldini olish pedagogika fanida alohida dolzarb muammo hisoblanadi. O‘qishga kira olmagan, qo‘lida kasb-hunari yo‘q, oz bo‘lsa-da tushkun kayfiyatda yurgan yoshlarni oliy o‘quv yurtlari tayyorlov kurslariga jalb etish, ularni ijtimoiy-ma‘naviy himoyaga olish o‘ta zarur vazifa hisoblanadi.

Ma‘lumki, dunyoda, ayniqsa yoshlar orasida ro‘y berayotgan johilliklar, jinoyatlar, yovuzliklar zamirida bekorchilik, yoshlik, tushunmovchilik, g‘o‘rlik, tajribasizlik, eng muhimi ilimsizlik yotadi. Bu borada maktab ta‘limidan tashqari ota-onalar o‘z farzandlarini bekor yurmaslik, vaqtdan unumli foydalanib ijtimoiy

foydali mehnat bilan shug'ullanishga, bilim olishga, kasb-hunar egallashga o'rgatmoqlari lozim. Xar bir ota-ona jamiyat rivojining barcha davrlarida ma'naviy-axloqiy va intellektual salohiyat bosh omil vazifasini o'tab kelganligini, aqliy va axloqiy ojizlik sezilgan joyda yovuzlik hamda jaholat urishini farzandlari ongi-shuuriga yetkazmoqlari lozim.

Tadqiqiy izlanishlarimiz hozirgi yoshlarning aksariyati ota-ona maslahatiga ko'ra o'qishga borayotganliklarini ko'rsatmoqda. Shunday sharoitda bor aql-idrokni ezgulikka safarbar etishda «Oila-maktab» hamkorligi alohida o'rin tutadi. Yoshlar ta'lim va tarbiyaviy qadriyatlarni anglab yetadi. Har xil salbiy illatlar va buzg'unchi g'oyalari qarmog'iga ilinmaydi. Bugungi kunda har bir o'qituvchi-tarbiyachining kasb burchi va mas'uliyati yoshlar fikrini sog'lom o'stirish, ularning ongi va qalbiga yot g'oyalarni kirib qolishidan saqlashga qaratilishi lozim.

Tadqiqiy kuzatuvlarimiz ayrim o'qituvchilar jamoasida nosog'lom psixologik muhit ildiz otganligini ham ko'rsatmoqda. Bunday muhitda oshna-og'ayingarchilik, ko'z bo'yamachilik, ta'lim-tarbiya ishiga bepisand qarash va mahalliychilik kabi salbiy illatlar avj olgan bo'ladi. Jamoadagi bunday illatlar yoshlar tarbiyasiga, albatta, o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. O'qishga qiziqmaydigan, tarbiyasi og'ir o'smirlar aynan ana shunday muhitda shakllanadi. Ularning ongli intizomi, to'g'ri kasb tanlashi va kelajak istiqboli haqida kim g'amxo'rlik qiladi? degan tabiiy savol tug'iladi.

Pedagogik tahlillar ayrim yoshlarni jinoyatchilik va ekstremistik yo'lga boshlovchi salbiy omillarning oldini olishda «Oila-maktab-mahalla» hamkorligini ilmiy-amaliy asosga qo'yish zarurligini taqozo etmoqda. Bu borada yangidan saylangan mahalla oqsaqollarini pedagogik tayyorgarlikdan o'tkazish zarurati tug'ilmoqda desak yanada to'g'ri bo'ladi. Chunki, har doim yoshlarni mehnatga, kasbga va oilaviy hayotga tayyorlashda «Oila-maktab-mahalla» hamkorligi zarurligi to'g'risida ko'plab gapiriladi. Amalda-chi?.....

Kasb tarbiyasiga xos ijtimoiy-salbiy xususiyatlarining kelib chiqishiga obyektiv va subyektiv omillar o'z vaqtida o'rganilishi zarur. Bunga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar bo'lajak o'qituvchining kasb faoliyatida tahlil etilishi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchining kasb tarbiyasi faoliyatini o'rganishga qaratilgan ilmiy-innovatsion tadqiqot metodlari tatbiqi an'anaviy metod hisoblangan suhbat, kuzatish, muloqot, anketa so'rovi kabi metodlarini inkor etmagan holda, bilaks, ushbu metodlar bazasida bir qator metodlarni modernizatsiya qilish hisobiga olib borilmokda. Bular: interfaol, monografik, ahamiyatiga qarab saralash, kvalimetriya va boshqa metodlar bo'lib, bo'lajak mutaxassisni bakalavr darajasini olgandan keyingi faoliyatini ilmiy asosda o'rganishga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

Magistratura va undan keyingi ya'ni ikki bosqichli oliy ta'lim tizimidan so'ngi mustaqil ish faoliyatida mutaxassisning ijtimoiy va kasbiy faolligi, raqobatbardoshligi, kasbiy o'z-o'zini tarbiyalashi asosida egallagan innovatsion bilim va ko'nikmalarini o'rganish muhim dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa.

Ma'rifatparvar inson Abdulla Avloniy ta'kidlagan «Tarbiya "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani» bugungi kunda "Uzluksiz ta'lim pedagogikasi"

darajasida rivojlanar ekan, uning samarasi o‘qituvchi shaxsining kasb tarbiyasi mahsuli hisoblangan kasb mahoratini egallash va kasbiy komillik sari intilishda o‘z ifodasini topadi. Bu yunalishda pedagogik-psixologik innovatsiyalarga tizimli yondashishni amalga oshirish, avvalo:

- yangi pedagogik-psixologik g‘oyalar bankini ishlab chiqish asosida innovatsion loyiha va dasturlar yaratish;
- yangi pedagogik-psixologik va axborot texnologiyalari asosida uzluksiz pedagogik-psixologik ta‘lim maqsadlarini belgilash hamda kafolatli natijalarga erishish yo‘llarini aniqlash;
- interfaol metodlarni qo‘llash metodikasini ishlab chiqish;
- fan, ta‘lim, tarbiya, ishlab chiqarish integratsiyasi modelini rivojlantirish asosida “uzluksiz tarbiya texnologiyasi”ni yaratishdek dolzarb muammoni hal etish turadi. Hozirda uning ilmiy asosnomasi tayyorlangan bo‘lib, tadqiqot natijalarini monografiya holida umumlashtirish ko‘zda tutilgan.

Tadqiqiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, uzluksiz pedagogik-psixologik ta‘lim jarayonida aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘qituvchi shaxsining kasbiy tarbiyasi ijtimoiy va kasbiy faol, malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

BIBLIOGRAFIYA

1. Ш.М.Мирзиёев (2022). Олий Мажлис ва Ўзбекистан халкига муроджаатномаси.
2. Ш.М.Мирзиёев (2018). Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг oliy bahodir. - Ташкент: Ўзбекистон б. 448.
3. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология Т., ЎФМЖН. 2010 й.
4. Ғозиев Э.Ғ. Онтогенез психологияси Т., Ношир. 2010 й.
5. Ғозиев Э.Ғ. Социал психология Т., Ношир. 2012 й.
6. Ғозиев Э.Ғ. Психология методологияси Т., Ношир. 2013 й.
7. Ғозиев Э.Ғ. Педагогик психология. Т., Университет. 2014
8. Рухиева.Х.А. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарлик ва ўз жонига қасд қилиш ҳолатларининг психопрофилактикаси. 2021-йил. 360 б. Тошкент.